



## Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

### SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:  
<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>



### MUSTAMLAKA DAVRIDA XIVA XONLIGIDA XONGA MUROJAATNING CHEKLANISHI

*Jurabek Polvonov*

*Tadqiqotchi*

*Jamoat xafsizlik universiteti*

*Toshkent, O'zbekiston*

---

#### MA QOLA HA QIDA

**Kalit so'zlar:** 1920-yil, 1873-yil fevral, 12-13 ming, Orenburg, A.P.Xoroshkin, Podpolkovnik Ivanov, Said Muhammad Rahim Bahodurxon, 1916-yil, Yuri Afanasev, Kazak yuzlik, Kolosovskiy, Xiva.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Xiva xonligi Rossiya mustamlakachiligi davrida tashqi dunyodan, xususan, islom olamidan butunlay ajralib qolishi, bunday sharoitda xonlikda Rossiya mafkurasi ta'sirida ig'vogarlik, guruhbozlik, fitnachilik, mafkuraviy buzuqlik, behayolik, shariatning oyoq osti qilinishi, poraxo'rlik kuchayib ketgani, mamlakatning ko'p jihatdan jahon taraqqiyotidan orqada qolishi kuchayib XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Xiva xonligining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga tegishli ko'pgina qimmatli daliliy ma'lumotlar o'rganildi va tahlil qilindi.

---

### THE RESTRICTION OF REFERENCE TO THE KHAN IN THE KHANY OF XIVA DURING THE COLONIAL PERIOD

*Jurabek Polvonov*

*Researcher*

*University of Public Safety*

*Tashkent, Uzbekistan*

---

#### ABOUT ARTICLE

**Key words:** 1920, February 1873, 12-13 thousand, Orenburg, A.P. Khoroshkin, Lieutenant Colonel Ivanov, Said Muhammad Rahim Bahadurkhan, 1916, Yuri Afanasev, Cossack Hundred, Kolosovsky, Khiva

**Abstract:** In this article, the Khanate of Khiva was completely isolated from the outside world, especially the Islamic world during the period of Russian colonialism, and under the influence of Russian ideology, provocation, groupism, sedition, ideological corruption, promiscuity, violation of Sharia, and bribery increased in the Khanate. As the country lags behind world development in many ways, a lot of valuable evidence related to the socio-economic situation of the Khiva Khanate was studied and analyzed in the late 19th and early 20th centuries.

## ОГРАНИЧЕНИЕ ОБРАЖЕНИЯ НА ХАНА В ХИВСКОЙ ХАНЕ В КОЛОНИАЛЬНЫЙ ПЕРИОД

**Журабек Полвонов**

*Исследователь*

*Университет общественной безопасности*

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** 1920, февраль 1873, 12-13 түсяч, Оренбург, А. П. Хорошкин, подполковник Иванов, Сайд Мухаммад Рахим Бахадурхан, 1916, Юрий Афанаев, Казачья Сотня, Колосовский, Хива

**Аннотация:** В этой статье Хивинское ханство бўло полностью изолировано от внешнего мира, особенно исламского мира, в период российского колониализма и под влиянием русской идеологии, провокаций, групповщину, подстрекательства, идеологической коррупции, распущенности, нарушения шариата, в Хивинском ханстве возросло взяточничество. Поскольку страна во многом отстает от мирового развития, в конце 19 - начале 20 вв. бўло изучено и проанализировано множество ценнүх фактов, касаюющихся социально-экономического положения Хивинского ханства.

### KIRISH

**Kirish.** Uch ming yillik davlatchilik an'analariga ega bo'lgan o'zbek xalqi tarixida Xorazm davlatchiligi alohida o'rın tutadi. Xiva xonligi va 1920-yil aprelda tashkil topgan XXSR O'rta Osiyo va Qozog'istonning yangi tarixi davri davlatchiligidə mintaqada sezilarli iz qoldirgan. Bugungi kunda Respublikada olib borilayotgan tarixiy tadqiqotlar yo'nalishida XX asrda sodir bo'lgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarning tarixini o'rganish muhim o'rın tutadi. O'zbek xalqi davlatchiligi tarixi konsepsiysi loyihasida o'zbek davlatchiligi tarixini xolisona, xaqqoni yaratish maqsad qilib qo'yilgan bo'lib, unda "o'zbek xalqining chor Rossiyasi mustamlakachiligi va sho'rolar istibdodi davridagi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma'naviy ahvoliga xolisona baho berish"[1] alohida qayd qilingan. Shuningdek, Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tarixiga oid manbalarni bir tizimga solish, hozirgi zamon talabidan kelib chiqib, ularni yangicha yondashuv asosida o'rganish va ilmiy muomalaga kiritish hamda bu yo'nalishda ilmiy xulosalar berish ham mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

Bugun, yangi O'zbekistonda uchinchi Renessans poydevorini qurishdek buyuk maqsad yo'lida harakat qilar ekanmiz, bu tariximizni chuqurroq, yot mafkuralardan holi o'rganish zaruriyatini shart qilib qo'ydi. "Hamma o'z tarixini ulug'laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo'q. Bu merosni chuqur o'rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak"[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bejizga bu gaplarni aytmadı. Bugun tarixchi olimlarning oldida xaqqoni tarixni yozish vazivasi qo'yildi. Milliy istiqlol g'oyasidan kelib chiqqan holda muammoga sivilizatsion yondashuv hisoblanadi.

Zamonaviy tarix fani oldida turgan vazifalar aniqlashtirilgan, sovet tuzumining mustamlakachilik mohiyati ochib berilgan, milliy mustaqilligimizning nazariy asoslari yoratilgan, tarixni xolisona va ilmiy yoritishga hamda xalqimizga haqqoniy tariximizni yetkazish masalalari ko'rsatilgan tarixiy-ilmiy adabiyotlar tadqiqotning nazariy metodologik asosi qilib olindi.

Albatta, tadqiqotda tarixiylik, xolislik, qiyosiy tahlil kabi usul va tamoyillar ham qo'llanildi.

#### **- Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).**

Mavzuning o'r ganilishini shartli ravishda ikki davrga bo'lish mumkin: birinchi davr, Sovet davrida o'r ganilishi; ikkinchi davr mustaqillik davrida o'r ganilishi.

**Birinchi davr**, Sovet davrida O.Sodiqov, M.Yo'ldoshev, T.To'xtametov, B. Mannonov, F.Abdullaev, Q.Munirov kabi olimlarimiz tomonidan ma'lum mavzu va yo'nalishlarda tadqiq qilingan. Bu masalada sobiq ittifoq davrida yaratilgan ishlар ichida M.I. Yo'ldoshevning Xiva xonligining iqtisodiy va siyosiy tarixi, davlat tuzilishi masalalari keng yoritilgan yirik monografik asarini[3], B. Safarovning "Xorazm tarixi" kitobini[4] va boshqalarni aytib o'tish mumkin.

Xiva xonligi arxiviga oid dastlabki hujjatlar prof. P.P. Ivanov[5] tomonidan topilgan. U 1936-yil Leningraddagi Saltikov-Shchedrin nomidagi xalq kutubxonasi dagi ro'yxatga olinmagan qo'lyozmalar ustida ish olib borar ekan, tasodifan XIX asr Xiva xonlari arxivini topib oladi. Xiva xonlarining arxivini birinchi marta tekshirgan va ilmiy jamoatchilik fikrini unga jalb qilgan P.P. Ivanov o'zi topgan arxiv daftarlari tartibga solib, ularning mazmunini qisqacha bayon qilib berdi. Lekin uning o'limi uning boshlagan ishini to'xtatib qo'ydi. Undan keyin ba'zi hujjatlarni rus tiliga M. V. Sazonova[6] tarjima qilgan.

**Ikkinci davr**, Mustaqillik yillarda Xiva xonligi tarixiga, xususan, davlat boshqaruvi, saroy mansab va unvonlari masalasiga bag'ishlangan ko'plab asarlar, maqolalar, darsliklar chop etildi[7]. O.Matalov, Sh.Saidov, M.Qayumov, Z.Rahmonqulova, O.Masolieva va boshqa tadiqotchilar maqolalarida ham bu masalalar qisman aks etgan.

Mavzuga oid muhim ma'lumotlar aks etgan ishlар ichida Sh. Vohidov va S. Saburovalar tomonidan yozilgan maqolalar katta ahamiyatga ega. Qo'lyozma manbalar ma'lumotlari va tahlili asosida yozilgan bu ishda Xiva xonligidagi 147 ta unvon va mansablar ro'yxati keltirib o'tilgan[8]. Ayrim unvon va mansablarga keng ta'riflar berilgan. So'nggi yillarda bu masalada N. Polvonov[9] va boshqa tadqiqotchilar tomonidan yozilgan ilmiy ishlarda ham biz o'r ganayotgan masalalar ko'rib chiqilgan.

Bundan tashqari ushbu masala yuzasidan mahalliy tarixchi olimlar A.Abdurasulov, Sh.Matrasulov, M.Matniyozov, M.Mahmudov, K.Xudoyberganovlarning tadqiqotlarida alohida mulohazalar keltirib o'tiladi.

So'nggi yillarda Xiva xonligi tarixiga oid olib borilayotgan tadqiqotlar jumlasiga N.Allaeva va Q.Yakubovlarning ilmiy izlanishlarini kiritishimiz mumkin. N.Allaeva tadqiqotlarida O'rta Osiyo xususan Xiva xonligi tarixi hamda tashqi savdo va diplomatik aloqalari bo'yicha o'z ilmiy izlanishlarini olib bormoqda. Bundan tashqari xonlikning tashkil topishi, davlat boshqaruv hamda Xiva xonligidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ham to'xtalib o'tilganligi bilan ahamiyatlidir[10].

## **MUHOKAMA / NATIJALAR**

Xiva xonlari xukmronligining ilk kunlaridanoq sultanat yurgizish intizomiga rioya qilgan holda va mamlakat ishlарining Nizomi maslahati uchun, davlat arboblarining saralari va zamonasining ko'zga ko'ringan qonunshunoslarini to'plab mashvarat o'tkazishgan.

Xiva xonligini zabit etish 1873-yil fevral oyining oxiri va mart oyining boshlarida Toshkentdan (general Kaufman), Orenburgdan (general Veryovkin), Mang'ishloqdan (polkovnik Lomakin) va Krasnovodskdan (polkovnik Markozov) chiqqan to'rtta otryad qo'shinlari tomonidan amalga oshirilgan. Qo'shining (har biri 2-5 ming kishi) umumiyligi soni 12-13 ming kishini va 56 qurol, 4600 ot va 20 ming tuyani tashkil qilgan. Barcha otryadlarga qo'mondonlik qilish Turkiston general-gubernatori Kaufman zimmasiga yuklatiladi.

26-mayda birlashgan Orenburg va Mang'ishloq otryadlari Xivaga shimoldan yaqinlashishadi, 28-mayda ikkala otryad ham Xivaning Shohobod darvozasi qarshisidagi

hududlarga joylashishadi; 28-may kuni birlashgan otryadlar darvozaga bostirib kirishdi, hujum paytida general Veryovkin boshidan yaralanishadi va qo'mondonlik polkovnik Saranchovga o'tadi[11] 29-mayda general-adyutant Kaufmanning Turkiston otryadi janubi-sharqdan Xivaga yaqinlashib, janub tomonidan Xivaga kirib, sulu e'lon qilinadi va Xiva taslim bo'ladi. Biroq, shaharda hukmronlik qilgan anarxiya tufayli, shaharning shimoliy qismi taslim bo'lish haqida bilmagan va darvozani ochmagan, bu devorning shimoliy qismiga hujumga sabab bo'lgan. Mixail Skobelev ikki rota bilan Shaxobod darvozasiga bostirib kirishadi, qal'aga birinchi bo'lib kirishgandan so'ng, dushman tomonidan hujumga uchragan bo'lishsa ham, u darvoza va qo'rg'onni orqasida askarlarni ushlab turadi. General Kaufman buyrug'i bilan hujum to'xtatiladi.

Xiva xonligining qo'lga kirtilishini A.P.Xoroshkin quyidagicha yozadi: "Bizning qo'shinlarimiz bog'larda, deyarli Xiva devorlari yonida turishardi. Tabiat va dushman ustidan g'alaba qozonganimizni nishonlab, dam oldik. Turkmanlarga qochgan Xon tez orada Xivaga qaytib keldi. General Kaufman unga o'z huquqlarini qaytarib berdi va Rossiya hukumati bilan munosabatlarda vositachi sifatida unga maxsus kengash tayinladi. Podpolkovniklar Ivanov va Pojarovlar bilan birga meni ham shahar chetidagi bog'lardan birida yig'ilgan ushbu kengash a'zosi etib tayinlashdi.

Birinchi yig'ilishga yetib kelib, xonni o'tovda polda o'tirganini ko'rdik; odatdagidek salomlashishdan so'ng u har birimizdan ism-sharifimizni va qanday qurol ekanligimizni so'radi. Keyin stul va kursilar keltirilib, majlislarimiz ochildi.

Ular deyarli har kuni bir yarim oy davom etdilar va shu vaqt ichida qo'shnirlarga o'tin, oziq-ovqat va em-xashak etkazib berish va qullarni ozod qilish masalalari muhokama qilindi va hal qilindi. Xon raislik qildi; Undan tashqari kengash tarkibiga: yangi devon-bek Mad-Niyoz (Qozalinskga surgun qilingan Mad-murod o'mniga tayinlangan), xonning ikkinchi amakivachchasi Iltezer-inoq va Mehter ham kirgan. Ba'zan xonning o'rtancha ukasi Ahmad yoki Otajon ham bo'lgan. Bu barcha shaxslarning qisqacha tavsifi." [12]

1873-yilning 12-avgustida Gandimiyon bog'ida Xiva xoni Said Muhammad Rahim Bahodurxon va Rossiyaning xonlikka bostirib kirgan qo'shin qo'mondoni, Turkiston general-gubernatori general-ad'yutant fon Kaufman tomonidan sulu bitimi imzolandi. Suh shartlari Kaufman tomonidan tayyorlangan bo'lib, unga ko'ra xonlikning barcha erk-ixtiyori deyarli to'lig'icha Rossiya mustamlakachilari izmiga o'tadi. Uning birinchi bandida: "Said Muxammad Rahim Bahodurxon o'zini butun Rossiya Imperatorligining itoatkor xizmatkori, deb biladi. U qo'shni xokimiyatlar va xonliklar bilan har qanday do'stlik munosabatlari kilishdan, ular bilan savdo va boshqa har qanday shartnomalar tuzishdan voz kechadi hamda Rossiyaning O'rta Osiyodagi Oliy darajadagi xokimiyati ijozatisiz ularga qarshi hech qanday harbiy harakatlar qilmaydi" [13], - deyilishining o'zi buning dalilidir.

Shartnomaga asosan Amudaryo Xiva xonligi bilan Rossiya oralig'idagi chegara qilib olindi. Chegara Kukertlidan daryo bo'ylab uning g'arbiy irmog'i ajralishi joyiga qadar va o'sha joydan irmoq bo'ylab uning Orol dengiziga quylishi joyiga qadar; undan dengiz bo'ylab Urga burniga va undan esa Ust-yurt etagi va Amudaryo eski o'zani bilan janubga - Kaspiy tomon cho'zilib ketadi[14]. Natijada Xiva xonligining Amudaryo o'ng tomonidagi butun yerlari aholisni va xonlik fuqarolarining u yerlardagi barcha mulklari bilan istilochilar ixtiyoriga o'tib ketdi. Shu bilan Xiva xonligi amalda Amudaryodan erkin foydalanish huquqidan ham mahrum bo'ldi.

Chunki shartnomada Rossiya paroxodlariga Amudaryoda cheklanmagan erkin suzish huquqi berilishi, Xiva va Buxoro xonliklari kemalari esa bunday huquqdan faqat Rossiyaning O'rta Osiyodagi Oliy darajadagi hukumati ijozati bilangina foydalanishlari mumkinligi ko'rsatiladi[15]. Buning ustiga, shartnomada daryoning chap qirg'og'i - Xiva xonligi yerida ruslar o'zlariga ma'qul ko'rgan joyida paroxod va kemalariga pristanlar barpo qilish huquqiga ega bo'lgan holda, ularning xavfsizligi uchun ham Xiva hukumati javobgar bo'lishi zarurligi[16] qayd qilinadi. Natijada shartnomaga asosida mustamlakachi savdogarlar Amudaryoning chap qirg'oqlarida ko'plab pristanlar, omborlar kurdilar. Ular xonlikning barcha shaharlarida, hatto

uning Ilonli, Oktepa kabi turkman ovullaridagi chekka joylarida ham savdo nuqtalarini, omborlarini barpo qilib, o‘zlarining savdo agentlarini qo‘ydiilar.

Bitim shartnomasida Rossiya savdogarlariga xonlikda cheklanmagan darajada huquq va imtiyozlar berilgan: Amudaryoning chap tomonida rus savdogarlariga omborlar, savdo kontoralari, magazinlar, xo‘jalik firmalari va ularning xizmatchilariga binolar qurishlari uchun ehtiyojlari darajasida yerlar ajratilishi va ularning xavfsizligi ham to‘lig‘icha xon hukumati zimmasiga yuklatildi[17]. Xonlikning barcha shahar va qishloqlari Rossiya savdosi uchun ochib qo‘yildi. Rossianing savdogarlarini va karvonlari butun xonlikda yurib, erkin savdo qilishlarini va ularning xavfsizliklarini ham Xiva hukumati o‘z javobgarligiga oldi.

Xonlikda savdo qiluvchi Rossiya savdogarlarini zakot va boshqa har qanday to‘lovlardan ozod qilinib, Xiva va xonlikning boshqa shaharlariда o‘z agentliklariga ega bo‘lish va xonlik orqali qo‘shni davlatlarga tovarlarini bojsiz o‘tkazish huquqiga ham ega edilar.

Sulh bitimida Rossiya fuqarolariga xonlikda ko‘chmas mulkka ega bo‘lish huquqining berilishi va ularning soliqqa tortilishi esa O‘rta Osiyodagi Rossiya hukumati ruxsati bilangina amalga oshirilishi[18] mumkinligi ham rus mustamlakachilarining xonlik boyliklarini egallahshlariga, ularni Rossiyaga olib chiqib ketishlariga cheksiz imkoniyatlar berdi. Gandimiyon sulh bitimi bergen bunday imkoniyatlar asosida mustamlakachilarning Xiva xonligidagi talonchilik harakatlari, ularning ko‘chmas mulk yaratish va unga egalik qilish yo‘lidagi tadbirlari nihoyatda ochko‘zlik bilan va tezda boshlanib ketdi.

Mazkur sulh bitimi shartlari rossiyaliklarning xivalik fuqarolar ustidan huquqiy ustunligini ham ta‘minladi. Jumladan, bitimda rossiyalik fuqarolarning xivaliklarga nisbatan bo‘lgan da’vo va shikoyatlari xon hokimiyati tomonidan zudlik bilan tergov qilinib, ularning talablari qondirilishi;

rossiyaliklar bilan xivalik fuqarolarning bir-birlariga qarzlarini qaytarish munosabati bilan yuzaga chiqqan e’tirozlar ko‘rilgan paytda xivaliklarga nisbatan rossiyaliklarga yengillik berilishi;

xivaliklarning rossiyalik fuqarolarga nisbatan da’vo va shikoyatlari bo‘lgan taqdirda (xonlik hududi ichkarisida yuz bergen taqdirda ham) tergov rus amaldorlariga topshirilishi shartligi qayd kilinganligi[19] buning guvohidir.

Muhammad Rahimxon II Xiva xonligi Rossiyaga qaram bo‘lgach, bir tomonidan chor hukumatiga sadoqat bilan xizmat qilgan bo‘lsa, ikkinchi tomonidan ruslarni yomon ko‘rar edi. Shuning uchun ham Rossiya orqali kirib kelgan yangiliklarga qarshi bo‘lmasa ham, ularni unchalik ko‘p qo‘llab-quvvatlamagan[20].

Bu davrdagi Xiva xonligi siyosiy hayotida saroydagи guruhbozlik va fitnalar alohida o‘rin tutadi. Arxiv hujatlarini o‘rganish bu jarayonda Asfandiyorxonning asosiy rol o‘ynaganligini ko‘rsatadi. Bunda u o‘z dushmanlarini yo‘q qilish, obro‘sizlantirish va ularning mol mulkini musodara qilish orqali o‘z boyligini oshirishni ko‘zda tutadi. 1911 yilda to\asi Davlatgaldi Do‘ma qotillarini topish bahonasida ukasi Ibodulla to‘rani obro‘sizlantirish va Davlatmurot mahramni qatl etishga erishadi. Natijada, Davlatgaldi Do‘g‘ma va Davlatmurod mahramlarning boyligini musodara qiladi[22].

Shunga asosan xivalik fuqarolarning rossiyaliklar bilan bog‘liq bo‘lgan da’vo va shikoyatlari mustamlakachilarning xonlik xududida tashkil kilgan mirovoy sudlari tomonidan ko‘rib chiqilishi tartibi joriy qilindi. Xivaliklar huquqining o‘z vatanida poymol qilinishi hatto shu darajaga borib yetdiki, 1916-yil yanvarida Asfandiyorxon huzuriga o‘z dardi-holi to‘grisida shikoyat qilishga poytaxtga borgan xivaliklar rus harbiylari tomonidan so‘roq qilinib, qamoqqa hukm etildilar.

Sulh bitimida Said Muhammad Rahim Bahodur xon tomonidan 1873-yil 12-iyunda e’lon qilingan, xonlikdagi barcha asirlarni ozod qilish, qullikni va kishilar bilan savdo qilishni abadiy tugatish to‘g‘risidagi farmon ham qayd qilinadi[23]. Mazkur farmon xon amaldorlari tomonidan darhol ijro qilinib, qullar ozod kilingan edilar.

Gandimiyon sulu bitimining oxirgi, 18-bandida “Mazkur urushni xon hukumati va Xiva xalqlari o‘zlar keltirib chickarganliklaridan Rossiya xazinasining urushdagi sarf- xarajatlarini qoplash uchun Xiva xonligiga 2 million 200 ming rubl miqdorida tovon solinadi”[24], - deyiladi. Bu tovon xivaliklar yelkasiga mustamlakachilik zanjirining nihoyatda og‘ir xalqasi bo‘lib tushgan edi. Xivaliklar 20 yil davomida bosqinchilarga tovon to‘ladilar. Bu tovon, shusiz xam turli-tuman yig‘imlardan qaddini ko‘tara olmayotgan fuqarolar gardaniga yanada og‘ir yuk bo‘lib tushdi. Xivaliklarni urushga sababchi qilib ko‘rsatib, ularni katta miqdorda tovon to‘lashga majbur qilishi Rossiya ochko‘zlarining o‘z bosqinchiligini oqlashi yo‘lidagi tovlamachiligi edi. Rossiya mustamlakachilari Markaziy Osiyoning boshqa xalqlariga nisbatan ham xuddi shunday bosqinchilik, talon-toroj, ommaviy qirg‘inlarni amalga oshirgan edilar.

Rossiya Davlat gumanitar universiteti rektori Yuriy Afanasev “Аргумент и факт” gazetasining 1997-yil 46-sonida “Rossiya hukumati xususida (knyazlar, podsholar va imperatorlar davri)” nomli maqolasida Rossianing tajovuzkorligi, bosqinchiligi Moskvaning yuksalishi davridan boshlangan, Rossiya doimo o‘ziga yangi yerlarni bosib olish, qo‘sib olish bilan kun ko‘rdi; Rossiya tarixida qandaydir nisbatan biror davomli davr bo‘lgan emaski, u urush qilmagan yoki bosib olmagan bo‘lsin[25], - deganida haq edi.

Gandimiyon sulu bitimi Rossiya hukumati tomonidan Xiva xonligiga nisbatan mustamlakachilik bitimi bo‘lib, uning barcha shartlari bosqinchilar tomonidan zudlik bilan ochko‘zlarcha amalga oshirilishga kirishildi.

Mustamlakachilar hatto Pyotr I davrida Amudaryoni eski o‘zaniga burish, daryo suvini yana Sariqamish ko‘liga quydirib, ular bo‘ylab kema qatnovini yo‘lga solish va ko‘plab yangi yerlarni ishga solib, u yerlarda rus poselenielarini barpo qilishni rejalahtirgan edilar. Shu maqsadda eski daryo o‘zani bo‘ylab rus irrigator-injenerlari tezda qidiruv-tekshiruv ishlarini boshlab yubordilar.

Bu ishlar, avvalo. Xiva xonligi istilosining keyingi (1874) yilidayoq boshlangan bo‘lib, “Rossiya Imperatorlik jug‘rofiya jamiyat” tomonidan Amudaryo ilmiy ekspeditsiyasi tashkil qilingan edi. Uning polkovnik Tillo boshchiligidagi bo‘limi Orol va Kaspiy dengizlari oraliqlaridagi past-balndliliklarni o‘lchash bilan; general Stoletov boshchiligidagi bo‘limi esa Amudaryo quyi qismi va Qizilqum sahrolarida suv, ob-xavo va tabiiy-tarixiy sharoitni kuzatish bilan shug‘ullandi. Shunday bir paytda “Tabiat xodisalarini tekshirish Sankt-Peterburg jamiyat” tomonidan Kaspiy, Orol va Ust-Yurtning tabiiy- tarixiy xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ekspeditsiya ham ish olib bormoqda edi. Xiva xonligiga general Kaufmanning bosqinchilik yurishi jarayonida esa xonlikda ular qadami yetgan yerlarda topografik jihatdan suratga olish va astronomiyaga oid ishlar amalga oshirildi. Xonlik egallanishi bilanok Urun daryosidan Sariqamishgacha va Amudaryoning quyi qismini o‘rganish uchun Urundai ekspeditsiyasi tashkil qilinib, uniig tarkibida Kaufman armiyasi bosh shtabi polkovniklari Gluxovskiy, Jilinskiy va baron Kaulbars, sapyor kapitani Rezvsh, zoolog Bogdanov, botanik Krauz va arxeolog Kunlar bor edi[26].

Xiva xoni Asfandiyorxonga arzga kelganlarning rus otryadi tomonidan tarqatilib, boshliqlarining qamoqqa olinishi bilan poytaxt Xivada vaziyat kundan-kunga keskinlasha bordi. Yovmut turkmanlarining Junaidxon va boshqa katxudolari qamoqqa olinganlarni o‘zlarining mehmoni deb hisoblab, ularning ozod qilinishini astoydil talab qilaboshladilar. O‘zbek isyonchilar Xiva tomon kelayotib Junaidxon huzurida bo‘lganlarida u o‘zbeklarni samimiy kutib olib, kurashda ularni quvvatlashini bildirgan edi. Kolosovskiy esa Rossianing harbiy qudratiga tayanib, isyonchilar bilan murosa qilishni istamadi, arzga kelganlarni tavbasiga tayantirmoqchi, turkmanlarni o‘ziga og‘dirmoqchi bo‘ldi. Shu bilan Xivada xon va hukmdorlarning erk-ixtiyorlari butunlay Rossiya harbiylarining qo‘liga o‘tdi. Xon ular qo‘lida qo‘g‘irchoq bo‘lib qoldi. Xiva deyarli harbiy holatdagi shaharga aylantirildi. Rus garnizonida va Kolosovskiy atrofida soqchilar kuchaytirildi. Kazak yuzlik komandiriga xon saroyini, pochta idorasini, kasalxonasi va shahardagi barcha Rossiya fuqarolarini va ularning korxonalarini qo‘riqlash to‘g‘risida buyruq berildi[27]. Xivada hamma narsa rus harbiylari ixtiyoriga o‘tdi. Hatto, qamoqdagi o‘zbek isyonchilarining

ozod qilinishlarini so‘rab xon va amaldorlariga yozilgan iltimosnomalarga beriladigan javobning qanday bo‘lishi ham Kolosovskiy hukmida edi.

Xonning Bosh vaziri Matvafo Baqqolovga qamoqdagi o‘zbeklarning ozod qilinishini so‘rab (1916-yil 20-yanvar) Qurbon Muhammad sardor (Junaidxon), Shomurod Baxshi, Jonjonbek kabi yovmut katxudolari va sardorlari muhrlari bosilib yozilgan iltimosnomaga Matvafo Bakkolov emas, uning nomidan Kolosovskiy aytib yozdirgan javobi qaytarildi.

Turkman katxudolari iltimosnomasida: “Xivaga borayotgan barcha o‘zbek eshonlari Xon Eshon huzuriga, katxudolari esa, bizlarga kelib to‘xtadilar va turlicha shikoyat va talablarni izhor qildilar. Bizlar ularga Xiva xoniga murojaat kilishlari zarurligini ko‘rsatdik, xondan ularning ishi yuzasidan birorta buyruq bo‘lgan taqdirda, biz uni bajarishga va’da berdik, Shundan keyin o‘zbeklar bizdan kuzatuvchi so‘raganlarida, Jonjonbek, Charrikboy va Xon Eshonning o‘g‘illari kuzatuvchi qilib tayinlandilar. Shunday ekan, ularning gunohlari nimada? Agar ularda birorta buzuq niyat bo‘lganida edi, biz ularga boshqa kishilarni qo‘sib yuborgan bo‘lardik. Shunday bo‘lgach, Xon Eshonning mehmonlari bo‘lmish 7 kishimiz ozod qilinsinlar”[28], - deb bayon qilinadi. Unga Kolosovskiy aytib yozdirgan javobida esa, “O‘zbeklar Xiva hukumati farmoyishi bilan emas, Rossiya hukumatining buyrug‘i bilan qamalgan... shuning uchun ham Amudaryo bo‘limi boshlig‘i Kolosovskiy huzuriga borib, unga sizning iltimosnngizni yetkazdim, u sizning xatingizni o‘qitib eshitib: “Turkmanlarning o‘zbeklar ishi bilan hech qanday dahllari bo‘lmashin, rus soldatlariga o‘zbeklarni qamash to‘g‘risida men buyruq bergenman, chunki ular mening buyrug‘imni bajarmaganlar, men ularga o‘zimizning volost boshqaruvchisi orqali ikki marta yaxshi maslaxatlar bergenman, ular uni andishasizlarcha rad qildilar... Rossiya bo‘limi boshlig‘ining buyrug‘ini bajarmagan har kimsaga nisbatan shunday qilaman, agar Junaid aqlli bo‘lganida edi, o‘zbeklarga Amudaryo bo‘limi boshlig‘i buyrug‘iga itoat qilishga va Xivaga kelmaslikka maslahat bergen va ularga kuzatuvchi qo‘sib yubormagan bo‘lardi, hozirgi qilgan ishi esa bo‘lim boshlig‘i buyrug‘iga bo‘ysunmaslikdir», degan so‘zlarni yozdirdi», deyiladi.

Kolosovskiy aytib turib yozdirgan xatga Bosh vazir Matvafo Baqqolov muhri bosilgan. Xatda «Xiva shahri. 1916-yil 21-yanvar»[29], degan yozuvlar bor edi.

Turkmanlar zo‘ravonlik mazmunida yozilgan bunday javobni olganlaridan keyin ular 3000 tacha otliq bo‘lib Junaidxon boshchiligidida Xiva shahri yaqiniga kelib, u yerdan qamoqdagi o‘zbeklarni ozod qilishlarini so‘rab bosh vazirga yana xat bilan murojaat qilganlarida ular xuddi ilgarigidek xonning Bosh vaziridan emas, balki Kolosovskiyning mustamlakachilik ruhida, do‘q-po‘pisalar bilan bayon qilingan, tahdidlardan iborat javobini oladilar[30].

Xiva shahrida vaziyat yanada keskinlashdi. Shundan so‘ng Kolosovskiy buyrug‘i bilan rus otryadida, «isyonchi» o‘zbeklar qamoqxonasida, shahardagi Rossiya korxonalarini qo‘riqlashda soldat naryadlari va razvedkachilar yanada kuchaytirildi[31].

Shaharda umumiylahvol nihoyatda og‘irlashadi, xon butunlay sarosimaga tushib, qo‘rqib qoldi. Shunday paytda xon faqat rus harbiysi polkovnik Kolosovskiy yordamiga tayanadi. Undan barcha masalalar yuzasidan o‘zicha mustaqil ish ko‘rishni so‘raydi. Shu bilan mamlakat ixtiyorini butunlay rus otryadiga topshiradi. Xon amaldorlari ham polkovnik ixtiyorida bo‘lib, uning buyrug‘ini bajaradilar O‘z xalqiga sotqinlik qilayotgan ba’zi xon amaldorlarining rus mustamlakachilariga sodiqligi to‘g‘risida Kolosovskiy, «Biz uchun og‘ir daqiqalarda Bosh vazir Matvafo, xon kanselyariysi boshqaruvchisi Abdullaboy, Xiva va Yangi Urganch hokimlari Hojiboy va Abdurahmonlar menga g‘oyat katta xizmat ko‘rsatdilar»[32], - deb ta’kidlaydi general-gubernatorga yo‘llagan raportida.

### **XULOSA**

Maqola yozishda oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib quyidagi xulosalarni chiqarish imkoniyati paydo bo‘ldi:

XX asr boshlaridagi Xiva xonligi boshqaruvi tizimi va siyosiy hayotida Rossiya hukumatining ta’siri, xonlikning ichki ishlariga aralashuvi yanada kuchaydi. Hatto, 1910 yil mamlakatda islohotlar o‘tkazish shartini yuklab, keyin Asfandiyorxon To‘rani xon deb e’lon

qildi. Shu sababli, 1910-1913 yillarda Islomxo‘ja rahbarligida qator islohotlarni amalgalashirishga harakat qilindi.

XX asr boshlaridagi Xiva xonligidagi siyosiy masalalardan bittasi xon hukumati va turkmanlar orasidagi munosabatlar masalasidir. Turkman urug‘larining 1910 yildan keyin xon siyosatiga va umuman mustamlakachilik siyosatiga qarshi chiqishlari avj oldi. 1915-1916 yillardagi Xiva qo‘zg‘olonida turli millat vakillarining birgalikdagi mavjud tuzumga qarshi kurashi shu davr ijtimoiy-siyosiy voqealardan biri hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston xalqi davlatchilngi tarixi konsepsiya. U/O‘bekiston tarixi, 1999. №1, 32-bet.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19 yanvar kuni ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha videoelektor yig‘ilishida aytilgan so‘z.
3. Yo‘ldoshev M.I. Xiva xonligida feudal yer egaligi va davlat tuzilishi. – Toshkent: O‘zdavnashr, 1959
4. Safarov B. Xorazm tarixi. – Toshkent, 1957. O‘RShI-1, № 10231, – B. XII-XVI.
5. Иванов П.П. Архив Хивинских ханов XIX века. Изд. I. - Ленинград, 1940. Его же: Очерки по истории Средней Азии (XVI-середина XIX в.). - М.: Издательство Восточной литературы, 1958.
6. Сазонова М.В. Земельные отношения в Хивинском ханстве в XIX в. – М., 1967.
7. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: Shark, 2000; Sagdullaev A., Aminov B., Mavlonov O‘., Norqulov N. O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat tarakkiyoti. 1-kism. – Toshkent: Akademiya, 2000. – B. 241-243;
8. Sagdullaev A., Mavlonov O‘. O‘zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. – Toshkent: Akademiya, 2006. – B. 126-128; Eshov B. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2012.
9. Vohidov Sh., Saburova S. Xiva xonligida unvon, mansablar va ularning vazifalari (XIX-XX asrning boshlarida) // O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar, 1998, № 3. – B. 39-46
10. Polvonov N. Xiva xonligida davlat mansablariga tayinlash tartibi // Jamiyat va boshqaruv, 2009, № 4. – B. 48-50; O‘sha muallif. XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Xiva xonligida mansablar (Safarov Bobojonning “Xorazm tarixi” asari asosida) // TDYuI Xabarnomasi. 2010, № 3. – B.32-38.
11. Allaeva N. Xiva xonligining diplomatiyasi va savdo aloqalari (XVI-XIXasrlar). Toshkent: 2019.
12. <http://regiment.ru/bio/S/52.htm>
13. Xoroshkin A.P. Xiva xotiralari (Qochiqn eslatmalari)/ Turkiston o‘lkasiga oid maqolalar to‘plamidan. Sank-Peterburg-1876. 473-483-bet.
14. Жуковский СВ Сношения России с Ехарой и Хивой та последнее трехсотлетие. Петроград, 1915 г Приложение II. С. 180.
15. Жуковский СР О‘sha asar, 180-bet.
16. O‘sha joyda.
17. O‘sha joyda.
18. Жуковский СП О‘sha asar, 181-bet
19. O‘sha joyda.
20. Жуковский СП О‘sha asar, 181182--bet
21. O‘zR MDA. I-125-jamg‘arma, 1-ro‘yhat, 609-ish, 55-varaq.
22. O‘zR MDA. I-125-jamg‘arma, 1-ro‘yhat, 609-ish, 75-77-varaqlar.
23. Жукоёский С.В. О‘sha asar, 182-bet
24. O‘sha joyda.

25. Пора перестат верит историческим мифам (О характере власти в России раэм ишляет известный общественный деятель, ректор Русского Государственного гуманитарного университета Юрий Афанасев). //Аргументи и факти. № 46. 1997. С. 14.
26. Maksheev A I. O'sha asar, 326-328-betlar.
27. O'zbekiston MDA 2 -I -jamg'arma , 2-ro'yxat , 546 -ish , 46 -varaq .
28. O'sha arxiv, 46,49 -varaqlar
29. O'sha arxiv, 50 -varaq
30. O'sha arxiv, 46-51 -varaqlar
31. O'zbekiston MDA 2 -I -jamg'arma , 2-ro'yxat , 546 -ish , 46 -varaq .
32. O'sha arxiv, 46 -varaq